

HANAFIY FIQHIDA YANGI SOHALAR PAYDO BO‘LISH ZARURIYATINING YUZAGA KELISHI

Sabrina Salimova

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
+998970986645*

sabsalimova6645@gmail.com

THE EMERGENCE OF THE NEED FOR NEW AREAS IN HANAFI JURISPRUDENCE

Sabrina Salimova

*Uzbek International Academy of Islamic Studies
1st year master's student in Islamic studies
+998970986645*

sabsalimova6645@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Hanafiy fiqhida yangi sohalarining paydo bo‘lish zaruriyatining yuzaga kelish sabablari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, zamonaviy munosabatlar va yangi muammolarning fiqhiy yechim talab etishi masalasi yoritiladi. Shuningdek, Hanafiy mazhabining qiyos, istihson va urf kabi usuliy tamoyillari yangi fiqhiy sohalarining shakllanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatib beriladi. Maqolada Hanafiy fiqhining moslashuvchanligi va hayotiyligi zamonaviy sharoitda ham shar‘iy hukmlar ishlab chiqish imkonini beruvchi muhim omil sifatida baholanadi.*

Annotation. *This article provides a scholarly analysis of the reasons behind the necessity for the emergence of new fields within Hanafi jurisprudence. It examines how socio-economic changes, contemporary relations, and newly arising issues in modern society require appropriate juridical solutions. In addition, the study highlights the methodological principles of the Hanafi school—such as qiyās (analogical reasoning), istihsān (juristic preference), and ‘urf (custom)—as important foundations for the development of new areas of fiqh. The article concludes that the flexibility and practicality of Hanafi jurisprudence enable it to formulate sharī‘ah-based rulings that respond effectively to the demands of contemporary conditions.*

KIRISH

“Fiqh” soʻzi lugʻatda “fahmlamoq”, “anglamoq” va “tushunmoq” kabi maʼnolarda boʻlib, u oddiy “fahmlash” emas, balki diqqat bilan chuqur anglab olish, mukammal va mufassal tushunishdir. Shunday qilib, “faqih”, yaʼni fiqh, olimi shariat hukmlarini bilishi, yod olishi bilan birga, ularning barcha sabab va hikmatlarini chuqur biladigan hamda shariat asoschisining maqsadlarini anglagan boʻlishi lozim. Shuning uchun ham shariat hukmlarini soddada uslubda bilgan kishi olim deyilsa ham, faqih hisoblanmaydi [1:51].

Abu Hanifaning taʼrifiga koʻra fiqh: “Maʼrifatun nafs ma laha va ma alayha”dir. Yaʼni, fiqh, har bir kishining (albatta, oqilu boligʻ musulmonning) oʻz foydasiga va zarariga boʻlgan narsalarni (albatta sharʼiy hukmlardan) bilib olishidir. Muhammad ibn Idris Shofiʼiy (767-820)ning taʼrifiga koʻra esa “Al-Ilm bil ahkomish sharʼiyil amaliyya min adillatihat tafsiliyya” (“Tafsiliy dalillardan amaliy sharʼiy hukmlarni bilish”) fiqh hisoblanadi [5:14].

“Majallatul ahkomil adliyya”ning birinchi moddasi fiqh taʼrifidan iborat boʻlib, unda fiqhga: “Amaliy sharʼiy hukmlarni dalillari bilan bilish” deb taʼrif berilgan. Bu yerda “ahkom”dan murod shariatda buyurilgan yoki qaytarilgan narsalar tushuniladi, “amaliy”dan esa eʼtiqodiy hukmlar chiqib ketishi bilinadi. Zotan, eʼtiqodiy hukmlar boshqa ilmning kalom ilmining mavzusidir. Mana shuni eʼtiborga olib, Mustafo Zarko fiqh uchun: “Islomdagi sharʼiy amaliy hukmlar majmuasi”, degan umumiy taʼrifni maʼkul koʻradi [4:66].

Islom fiqhi ikki yirik tarmoqqa (ikki qismga) boʻlinadi. Ular usulul fiqh va furuul fiqh deb ataladi.

1. Usulul fiqh - fiqh asoslari. Shariatning asosiy manbalaridan sharʼiy hukmlarni ishlab chiqishning qoidalarini oʻrganadigan fanga “usulul fiqh” deyiladi. Sayyid Sharif Jurjoniy (1340-1414) “Taʼrifot” (Taʼriflar) asarida keltirgan usulul fiqh borasidagi taʼrifi oʻta sodda: “U fiqhga yetkazadigan qoidalarni bilishdir” [6:18]. Uning mavzusi sharʼiy dalillar boʻlib, ulardan qay tariqa amaliy hukmlarni chiqarish mumkinligi tadqiq va tahlil etiladi.

Mazkur fan sohasi tilshunoslik, kalom, tafsir, hadis va boshqa aqliy ilmlar (jumladan, mantiq, falsafa, tarix, siyosat va jamiyatshunoslik)ga mustahkam bogʻlangan. Uning maqsadi mutaxassislarda toʻrtta asosiy islomiy manbalar - Qurʼoni karim, sunnat, ijmo va qiyosdan sharʼiy hukmlarni ishlab chiqish malakasini hosil qilishdir [3:61].

Ushbu toʻrt asosiy manbaga har bir mazhab oʻziga xos qoʻshimcha manbalar qoʻshganlar. Ibn Nadim oʻzining “Al-Fihrist” (Mundarija) asarida xabar berishicha, usulul fiqh borasida ilk asar bitgan shaxs Abu Yusufdir [2:256]. Afsuski, u zotning bu boradagi asari bundan ancha asrlar oldin yoʻq boʻlib ketgan. Bizgacha yetib kelgan usulul fiqhga oid asarga asoslanib, uning ilk tasnifchisi sifatida Muhammad ibn Idris Shofiʼiy (767-820) eʼtirof

qilinadi. Usulul fiqh sohasida hanafiy mazhabida 50 ga yaqin asarlar hamda 100 dan ortiq sharh va hoshiyalar bitilgani ma'lum.

2. Furu' ul-fiqh - fiqh shoxobchalari. Har bir mazhabning o'z usulul fiqhida belgilab berilgan qoidalariga ko'ra ishlab chiqilgan amaliy hukmlar majmuasi furuul fiqh deyiladi. Unda mujtahidlar, taxrij ashoblari shar'iy dalil va mazhab masdar (manba)laridan hukmlar ishlab chiqargan bo'ladi; hukmlar majmualari, fatvo to'plamlari yigiladi va o'rganuvchilarga osonlashtirish maqsadida matnlar tuziladi; ishlab chiqilgan hukmlarning asoslili, xalqchilligi, zamon va makon nuqtai nazaridan foydaliligi tahlil etiladi; boshqa mazhablar bilan qiyosiy o'rganiladi; yangi hodisalarga zamonaviy fatvolar izlanadi va hokazo.

Islom fiqhi o'z rivojlanish yo'lida bir qancha qo'shimcha sohalar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Fiqhning usul va furu' qismi mufassal va mukammal bo'lishi uchun bir necha qo'shimcha sohalariga suyanib kelgan. Ularni quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatish mumkin:

Ahkom ilmi - fiqhiy masalalarning dalillarini ko'rsatish va o'rganish hamda tahlil qilish bilan shug'ullanadigan fan sohasi bo'lib, mazhab sohiblarining har bir fiqhiy qarashiga oyat yoki hadisdan dalil keltirish, faqih fatvosini isbotlash bilan shug'ullanadi. Bu sohada yaratilgan manbalar mazhab qarashlarini oyat va hadis bilan isbotlashni maqsad qilgan bo'ladi. Abu Yusuf va Muhammad Shayboniyning "Al-Asor" (Asarlar) nomli kitoblari shu xildagi manbalarining birinchisidir.

Keyinchalik Abu Ja'far Tahoviyning (853-933) "Sharhu maonil asor" (Asarlar ma'nolarini sharhlash) hamda "Mushkulul asor" (Asarlarning mushkul o'rinlari) nomli kitoblari, Abdulloh Subazmuniyning (872-952) "Kashful asor" (Asarlar kashfi) asari, shuningdek, Shamsiddin Diyoriyning "al-Masoil ashsharifa fiy adillati mazhab Imom Abi Hanifa" (Imom Abu Hanifa mazhabi dalillaridagi sharofatli masalalar), Ali Koriy (vaf. 1014/1605) qalamiga mansub "Sharhu muxtasaril vikoya (Sharhun niqoya)", Abdulhaqq Dehlaviyning (1552-1642) "at-Tibyon fiy adillati mazhab Imom Abi Xanifa an-Nu'mon" (Imom Abu Hanifa No'mon mazhabining dalillari haqida bayon etish), Muhammad Murtazo Zabidiyning (vaf. 1205/1790) "Uqudul javohiril munifa" (Yuksak javohirlar marjoni), Zahir Ahsan Nimaviy (taxminan 1861-1930) qalamiga mansub "Asorus sunan" (Sunnatlarning asarlari), Ashraf Ali Tahonaviy (1863- 1943) qalamiga mansub "Exyous sunan" (Sunnatlarni tiriltirish) hamda "Jomeul asor" (Asarlar to'plami), Zafar Axmad Usmoniy Tahonaviy (1892-1975) qalamiga mansub yigirma ikki jildli "E'lous sunan" (Sunnatlarni oliy qilish) nomli kitoblar mazkur sohadagi e'tiborli manbalar bo'lib qoldi.

Xilof ilmi - qiyosiy huquqshunoslik (mazhabshunoslik) bo'lib, hozirda ko'proq fiqhi muqorin deb atalmokda. U shariat manbalaridan chiqarib olingan hukmni muxoliflar

hujumidan saqlash maqsadida shar'iy dalillardan foydalanish yo'llarini ko'rsatib beruvchi fan. U usul ul-fiqhning eng asosiy sho'balaridan biri hisoblanadi.

Xilof olimi munozarali mavzu bo'yicha muxolif tomonning barcha dalil va hujjatlarini eshitgandan keyin masalalarni qiyosiy uslubda o'rganadi. Uning dalillarini asosiy usul koidalariga tayangan holda tekshirgandan so'ng, ularning asossizligini ko'rsatib berib, o'z mazhabida chiqarilgan hukmning to'g'riligini isbotlaydi. Ayni paytda o'z mazhabiga qaratilgan shak-shubhani talqin etadi [1:9]. Ushbu fan sohasi ko'proq nazariy ahamiyatga ega bo'lgani bois nazar ilmi deb ham ataladi.

Xilof ilmining asoschisi sifatida Abu Zayd Dabusiyy Buxoriy (978-1039) tan olingan. Abu Zayd Dabusiyyning "Ta'sisun nazar" (Qarashlarni asoslash) va "Taqvimul adilla" (Dalillarni baholash) asarlari, shuningdek, Abu Lays Samarqandiyning (vaf. 393/1003) "Muxtalafur rivoya" (Rivoyat ixtilofi) asari, Abu Hafs Nasafiyy (1068-1142) qalamiga mansub 2669 baytdan iborat "Manzuma fil xilof" (Xilof haqida manzuma) asari va unga yozilgan sharhlar, Raziyyuddin Saraxsiyga (vaf. 571/1175) tegishli "At-Tarikatur rizaviya" (Rozi bo'ladigan yo'l) asar va uning sharhlari hamda Abul Mahomid Hasiriy Buxoriy (1151-1238) qalamiga mansub "At-Tariqatul hasiriyya fiy ilmil xilof baynash Shofi'iya val hanafiyya" (Shofiyy va hanafiylar orasidagi xilof ilmiga ba g'ishlangan Hasiriyning uslubi) kabi asarlar xilof ilmi bo'yicha hanafiylilikda e'tirof qilingan manbalardir.

Jadal ilmi - munozara uslublarini o'rganadigan fan bo'lib, faqihlar va turli mazhablar tarafdorlari orasida yuz berib turadigan munozaralarning odob va qoidalarini ko'rsatib beradi. Jadal ilmi fiqh uchun zarur bo'lib, ayrim masalalarning qabul qilinishi yoki rad etilishi yoxud shubha ostiga olinishi jadal va munozara orqali yuz beradi [6:150]. Shu boisdan bu ilmni munozara ilmi deb ham ataladi.

Hanafiyy mazhabida jadal ilmiga asos solgan faqih "Usul ul-Pazdaviy" asarining muallifi Faxrul islom Pazdaviy (1009-1089) hamda "Al-Irshod" (Yo'llanma) sohibi Rukniddin Omidiy (vaf. 615/1218) hisoblanadilar.

Jadal ilmi bo'yicha hanafiyy mazhabida Abu Mansur Moturidiyning (vaf.333/944) "Kitobul jadal", Abu Hafs Nasafiyyning (1068-1142) "Al-Fusul" (Fasllar) kitoblari e'tiborli manbalar bo'lib kelgan.

Shurut ilmi - huquqiy shartnomalar va ularni tuzishni o'rgatadigan fan sohasi. Shartnomalarni qonuniy rasmiylashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan, aniq bir o'zgarmas nizomga solingan qoidalar majmuasi "shurut" bo'lib, bu keng ma'noda fiqhda keltiriladigan barcha turdagi akdlar, kelishuvlar, vasiqalar, vaqf va boshqa turdagi kozi hujjatlarini rasmiylashtirish qonun- qoidalaridir. Shurut ilmi tarkibiga ko'proq amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mahzar va sijill (ko'pligi "mahozir va sijillot") - bayonnoma, qayd va ro'yxat, reyestr, arxiv hujjatlarini tuzish haqidagi fan ham kirib ketadi.

Usmoniylar (1281-1924) davrida mazkur sohani umumiy nom ostida ilmus sukuk ham deyilgan. Shurut ilmi atama va nazariya sifatida ilk bor Muhammad Shayboniyning "as-Siyar al-kabir" asarida tilga olingan. Hanafiy mazhabidagi shurut ilmiga oid eng yirik va e'tiborli asar Abu Ja'far Tahoviy (853-933) qalamiga mansub bo'lib, uning ikki asari - "al-Jome' al-kabir fish shurut" (Shurut haqida katta to'plam) va "al-Jome' as-sag'ir fish shurut" (Shurut haqida kichik to'plam) ushbu mavzuga bag'ishlangan. Bundan tashqari, hanafiy mazhabida Xassof (757-875) yozgan "Kitobush shurut al-kabir" (Shurut haqida katta kitob) hamda "Kitobush shurutis sag'ir" (Shurut haqida kichik kitob), Abu Nasr Samarqandiy (vaf. 550/1155)

qalamiga mansub "Kitobush shurut valvasoiq" (Vasiqalar va shartnomalar kitobi) nomli asarlarni ko'rsatish mumkin.

Faroiz ilmi meros taqsimotiga, meros huquqiga bag'ishlangan fiqhning alohida yo'nalishi bo'lib, unda vafot etgan kimsaning mol-mulkini merosxo'rlarga oyat, hadis va furu'iy fiqhga asoslangan holda shar'iy yo'l bilan taqsimlashning nazariy va amaliy tomonlari o'rganiladi. Merosni to'g'ri taqsimlash farz bo'lgani uchun u shunday nom bilan atalgan. Bu fanni o'rganishga ko'proq targ'ib qilingani bois "Ilmning yarmi" deya madh etilgan. Uning mukammalligi riyoziyot bilan bog'liq bo'lgani uchun arifmetika va algebra fanlarini ham yaxshi o'zlashtirish talab etiladi.

Shunga ko'ra, algebra fanining otasi Muhammad Xorazmiy (783-850) qalamiga mansub mashhur "Al-Jabr val muqobala" asarining asosiy qismi faroiz ilmiga bag'ishlangan edi. Abu Ja'far Tahoviyning (853-933) faroizga bag'ishlangan alohida asaridan keyin Najmiddin Zoxidiy (vaf. 658/1260), Ibn Turkmoniy (1282-1344), Zahiriddin Temurtoshiy (vaf. 1004/1596), Muhammad Birkiliy (1523-1573) kabilarning kitob va risolalari shuhrat qozondi. Burhoniddin Marg'inoniy (1123-1197) qalamiga mansub deyiladigan "Faroizi Usmoniy", Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) qalamiga mansub "Ar-Roiz fil faroiz" (Faroiz ilmida mashq qildiruvchi) asarlari ham shu jumladandir. Bular orasida Abu Tohir Sirojiddin Muhammad ibn Mahmud ibn Abdurrashid Sijovandiy (XIII asr) yozgan "Al-Faroiz as-sirojiyya" asari o'rta asrlarda juda mashhur bo'lgan va madrasalarda asosiy darsliklardan biri hisoblangan. Uning o'nga yaqin sharhlari bo'lsa-da, Sayyid Sharif Jurjoniyni (1340-1414) "Sharifiyya" nomli sharhi ko'proq shuhrat qozongan. Mazkur sharhga ham o'ndan ortiq hoshiyalar bitilgan. Ulardan Shamsiddin Mahmud Buxoriy Kaloboziy (vaf. 700/1300) bitgan "Zav'us siroj" (Chiroq ziyosi) nomli hoshiyasi mashhurdir.

Shuningdek, faroiz ilmi mavzusi kitob (bob) holida fatovolar (masalan, "Fatovoyi Olamgiriyya") va fiqhiy matnlar (masalan, "Kanzud daqiq") tarkibiga ham kiritilgan. Adabul qazo - hukm yuritish odoblari mavzusiga bag'ishlangan soha bo'lib, unda qozi

qanday bo'lishi, o'zini qanaqa tutishi kerakligi, hukmni qanday yuritishi, boshqa qozilar va aholi bilan muomalasi, qozixonaning qayerda bo'lishi, qanday bo'lishi, qozi va qozixona ishchilari faoliyati kabi masalalar tahlil etiladi. Bu boradagi ilk asarni Abu Yusuf ta'lif qilgan bo'lib, "Adabul Qozi" deb atalgan. Uni Bishr ibn Valid Marisiy (vaf. 218/833) hamda Muhammad ibn Simoa (747-847) kabi shogirdlari yozib olib, rivoyat qilganlar. Shundan so'ng bu sohadagi Abu Hozim Abdulhamid ibn Abdulaziz Hanafiy (vaf. 292/905) asari paydo bo'ldi, keyinchalik esa Xassof (797-875), Jassos (918-980), Hinduvoniy (vaf. 362/973), Kuduriy (972-1037), Shayxul islom Sug'diy (vaf. 461/1069), Shamsul aimma Halovoniy (vaf. 456/1063) va Saraxsiy (1009-1090), Husomush shahid (1090-1151), Xoharzoda (vaf. 483/1090), Qozixon (vaf. 592/1195) kabi hanafiy olimlarining asar va sharhlari shuhrat qozongan [8:80].

Shuningdek, hanafiy mazhab fiqhida "Adabul qazo" yo'nalishida yaratilgan ikkita fiqhiy manba - Burhoniddin Marg'inoniyning nevarasi Abul Fatx Imodiddin Abdurrahim ibn Abu Bakr (XIII asr) qalamiga mansub 651/1254 yili yozilgan "Fusuli imodiy", ya'ni "Fusulul ahkom li usulil ahkom" (Hukmlarning asoslari uchun hukmlarni ajratish) hamda Alouddin Abul Hasan Ali ibn Xalil Taroblusiy (vaf. 844/1440) qalamiga mansub "Muinul hukkom", to'liq nomi "Muinul hukkom fiy mo yataraddadu baynal xasmayn minal ahkom" (Ikki da'vogar orasida hukmlardan taraddudlangan narsalari borasida hokimlarga yordamchi) asarlari aloxida e'tiborga loyiq.

"Adabul kazo" sohasiga muftiylarning fatvo berish odoblari, fatvonavislik qoidalari, so'rovchilarning odoblari borasida bitilgan "Odobul muftiy val mustaftiy" (Fatvo beruvchi va fatvo so'rovchining odobi), "Tabsiratul muftiy" (Muftiyga ko'rsatma) kabi asarlarni ham kiritish mumkin.

Hiyal ilmi shar'iy taqiqlanmagan, balki shariatga muvofiq bo'lgan barcha tadbirlar, vositalar, yo'l-yo'riqlardan halol maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilgan hiylalardan ("hiylai shar'iya") foydalanishning nazariy tomonlarini o'rganadigan fiqh ga tegishli soxa. U hanafiy mazhabiga ko'ra ham haromni halol qiladigan yoki aksincha bo'ladigan holatlarda umuman durust emas. Hiylai shar'iya shariat hukmlarini suiiste'mol qilishdan chikib ketish yo'llarini o'rgatadigan soha bo'lgani uchun unga "al-maxorij" (chiqish o'rinlari) degan nom ham berilgan. Shar'iy hiylalarni ilk bor Abu Hanifa va Abu Yusuf to'plagan haqida gap bor bo'lsa-da, uni tadqiqotchi Abu Zaxra mutlaqo inkor qiladi.

Muhammad Shayboniydan "al-Hiyal val maxorij" (Hiylalar va chiqish o'rinlari) nomli asarni uning shogirdi Abu Hafs Kabir Buxoriy (767-831) rivoyat qilgan bo'lib, Hokim Shahid Marvaziy (vaf. 334/945) uning muxtasar shaklini yozgan. Shar'iy hiylalarga bag'ishlangan mazkur muxtasarni Shamsul aimma Saraxsiy (1009-1090) sharhlagan. Muhammad Shayboniyning mazkur asarini J.Shaxt 1930 yilda Leypsigda nashr ettirgan.

Shar'iy hiylalarga bag'ishlangan asarlarning eng yirigi ikki jildli Xassofning (797-875) asari hisoblanadi. Sirojiddin O'shiyning (vaf. 575/1179) "Fatovoyi Sirojiyya", Ibn Nujaymning (1519-1563) "Al-Ashboh van nazoir" (Naziralar va o'xshashliklar) yoki "Fatovoyi Olamgiriyya" kabi asarlarda hiylai shar'iyaga alohida boblar ajratilgan [8:82].

Siyar ilmi - xalqaro islomiy huquqqa bag'ishlangan fan sohasi. U oyat, hadis, ulamolar fatvosiga hamda axlok va aqidaga asoslangani bois bu orada har bir mazhabning o'ziga xos karash va fikrlari bo'lishi tayin. Shuning uchun hanafiy mazhabida ham bu soha ancha rivojlangan edi. Siyar ilmida musulmon davlatlari bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, tinchlik va urush masalalari, musulmon jamiyatining boshqa din vakillari bilan munosabatlari, musulmonlarning milliy, urfiy, ilmiy saviyalaridan kelib chiqib, ularning huquqiy holatlari kabilar o'rganiladi.

Hanafiy mazhabida siyar ilmiga bag'ishlangan ilk fiqhiy manba Muhammad Shayboniyning katta-kichik "As-Siyar" asarlaridir. Shamsul aimma Saraxsiy (1009-1090) Imom Muhammadning "As-Siyarul kabir" asariga mufassal sharh bitgan. Siyar ilmiga bag'ishlangan boblar har bir e'tiborli fiqhiy manbalarga kiritilgan bo'lib, ba'zilarida bu mavzu "Jihod kitobi" deb atalgan. Islom tarixida "siyar" atamasi Payg'ambar (s.a.v) va sahoba hamda tobeinlarning jangu jadallari, yurishlari, aniqrog'i, hayotlari faoliyatiga bag'ishlangan asarlarga nisbatan ham ishlatiladi.

Ehtisob ilmi davlat boshqaruvi siyosatini yuritish, shahar madaniyati, aholi barcha qatlamlarining o'z vazifalarini to'g'ri va qonuniy ado etishi, davlat boshliqlarining siyosatni qanday olib borishlari, fuqarolarning shar'iy amallarni bajarishlarining nazorati - muxtasiblik, nazoratchilik kabilarni tahqiq qiluvchi fiqhning bir sohasi. Shuning uchun u umumiy ma'noda ahkomi sultoniya deb ham nomlanadi.

Hozirgi kunda uni siyosati shar'iy deb ham atamoqdalar. Bu bobda hanafiy mazhabidagi eng e'tiborli fiqhiy manba "Nisobul ehtisob" (Muxtasiblik nisobi) deb nomlangan. 64 bobdan iborat ushbu asar Kalkuttada oz adadda nashr etilgan. Uni Misrda Qozi al-quzot bo'lib, Izziddin ibn Avaz nomi bilan shuhrat qozongan Umar ibn Muxammad ibn Avaz Shomiy Hanafiy (vaf. 696/1296) ta'lif qilgan. Shu nomdagi yana bir asar Ahmad Nazif (vaf. 1275/1858) qalamiga mansub. Husayn Voiz Koshifiyning (1440-1505) "Mayominul iktisob fiy qavoidil extisob (Nazoratchilik qoidalarida kasb kilishning muborakligi) asari ham shu mavzuga bag'ishlangan. Shuningdek, Ali ibn Muxammad Ali Xorazmiyning (XVI asr) Shayboniyni xonga (1500-1510) bag'ishlab yozgan "Favoid" (Foydalar) nomli asarida ham muhtasiblik haqida juda muhim ma'lumotlar keltirilgan. 878/1473 yilda yozib tugatilgan To'g'on Muhammadiy Misriy Hanafiy (XV asr) qalamiga mansub "Al-

Muqaddimatu as-sultoniyya fiy siyosatish shar'iyya" (Shar'iy siyosat borasida sultonlikka takdimot) asari ham shu mavzuga oiddir [8:87].

Fiqhiy qoidalar ilmi mazhab doirasidagi va umumfiqhiy qoidalar istinbot etish; ularni tahlil va tadqiq qilish hamda ular orqali far'iy masalalar ishlab chiqish yoki ko'rsatib berishga bag'ishlangan furuul fiqhning bir sohasi. Ular umumiy nom ostida "qavoidi fiqhiyya" yoki "kavoidi kulliyya" deb nomlanadi. Hanafiy mazhabida ilk fiqhiy qoidalar Muhammad Shayboniy va Abu Yusufning kitoblarida sochilgan holda uchraydi. Ulardan o'n yettitasini birinchi marta Abu Tohir Dabbos (X asr) ishlab chiqqan. Uning zamondo shi Abul Hasan Karxiy (873-952) esa mazkur qoidalarni ko'paytirib 37 yoki 39 taga yetkazgan.

Keyinchalik Ibn Nujaym Misriy (1519-1563) o'zining "Al- Ashboh vannazoir" (Naziralar va o'xshashliklar) asarida 44 ta koidani zikr qilib sharhlagan. XVIII asrga kelib Abu Said Muhammad Xodimiy (1701-1763) "Majomiul haqiq" (Haqiqatlar majmualari) asarida hanafiy mazhabidagi fiqhiy koidalarni 154 ta qoidada jamlashga harakat qilgan. Usmoniylar (1281-1924) davrida 1869-1876 yillar davomida ulamolar hay'ati tomonidan yaratilgan "Majallatul ahkom al-adliyya"da hanafiylkdagi asosiy 99 ta fiqhiy qoida qayd etilgan. Uning o'nga yaqin sharhlari ham mavjud. Shom muftiysi Mahmud ibn Hamza Hamzoviy (1821- 1887) o'zining "Al-Faroidul bahiyya fil qavoid val Favoidil fiqhiyya" (Fiqhiy foydalar va qoidalar borasida qimmatbaho durdonalar) nomli asarida 251 ta fiqhiy qoidani to'plashga muvaffaq bo'lgan. Uni fiqhiy mavzularga bo'lib, tartib bergan. Bu hanafiy mazhabidagi fiqhiy qoidalarni eng ko'p to'plagan muhim manba bo'lib, Damashqda 1986 yilda nashr etilgan.

XIX asrda Buxoroda yashagan domlalaridan biri Mulla Rahimbobo Shofurkomiy fiqhni (al-mashruot) uchga bo'lib ko'rsatgan: ibodot, muomalot va uqubot [7:42].

Ibodot qismi beshta: namoz, zakot, ro'za, haj va jihod. Muomalot qismi ham beshta: mol oldi-berdisi, nikoh, (taloq ham birga), omonatlar, tarikalar (meros taksimoti), qozilik ishlari.

Uqubot qismi ham beshta: qasos, zino, o'g'irlik, ichkilik va tuhmat hadlari (ya'ni, jinoyatga jazolar). Tadqiqotchi Mustafu Ahmad Zarqo esa islom fiqhini quyidagi qismlarga bo'lib ko'rsatgan [4:66]:

- 1) namoz, ro'za kabi ibodatga taalluqli hukmlar;
- 2) nikoh, taloq, vasiyat, meros kabi insoniy huquqqa bag'ishlangan shaxsiy holatlar;
- 3) odamlarning bir-biriga bo'lgan muomalalari, kasb-kori, munosabatlariga bag'ishlangan muomalalar qismi. Bu fuqarolik huquqi ham deb ataladi;
- 4) davlatning fuqaro bilan munosabatlari, bir-biriga bo'lgan majburiyatlariga bag'ishlangan ahkomi sultoniya yoki siyosati shar'iy qismi;
- 5) odamlar orasidagi ichki nizomlar, jazolash va mukofotlashga bag'ishlangan qism – uqubatlar;

6) davlatning boshqa davlatlar bilan aloqasi, urush, sulh muomalalariga bag'ishlangan siyar qismi, u umumiy davlat xuquqi deb ataladi;

7) odob-axloqqa, insoniy madaniyatga bag'ishlangan axloq qismi. Hanafiy mazhabi bo'yicha yozilgan tafsir, hadis, kalomga oid asarlar xam ushbu mazhab vakillari uchun ahamiyatli bo'lib kelgan. Mazkur mazhabdagi qonun-qoida va me'yorlarning ko'pchiligi tafsir, hadis va kalomga oid asarlarga suyangani bois hanafiy olimlar bu sohalarda ham barakali ijod kilib kelganlar. Jumladan, tafsir sohasida Abu Mansur Moturidiyning (vaf. 333/944) "Ta'vilotu ahlis sunna" (Ahli sunna ta'villari) yoki "Ta'vilotul Qur'on" (Qur'on ta'villari), Abu Lays Samarqandiyning (vaf. 393/1003) "Bahrul ulum" (Ilmlar dengizi), Abu Hafs Nasafiyning (1068-1142) "At-Taysiru fit tafsir" (Tafsir sohasida osonlashtirish), Abul Barakot Nasafiyning (1232-1310) "Madorikut tanzil" (Qur'on ma'nolari) kabi asarlari, shuningdek, hukm oyatlariga bag'ishlangan asarlar Jassosning (918-980) "Ahkomul Qur'on" (Qur'on hukmlari), Mulla Jevan Hindiy Hanafiyning (1636-1717) "At-Tafsirotul ahmadiya" (Ahmadning tafsirlari) kabi manbalarni zikr qilish mumkin [8:92].

Hadis sohasida esa fiqhiy manbalardagi hadislarning taxrijlari – hadis roviylari va manbalarini ko'rsatilgan asarlarni, shuningdek, hadis kitoblariga yozgan hanafiy olimlarining sharhlarini ko'rsatish mumkin. Ulardan eng ahamiyatli "al-Hidoya"da keltirilgan hadislar taxrijiga bag'ishlangan Jamoliddin Zaylaiyning (vaf. 743/1343) "Nasbur ra'ya" (Bayroq tikish, o'rnatish) va "Al-Ixtiyor"da keltirilgan hadislar taxrijiga bag'ishlangan Ibn Kutlubg'oning (1399-1474) asarlaridir. Hadis kitoblariga yozilgan sharhlar ichida esa "Sahihul Buxoriy"ga bitilgan Badriddin Ayniyning (1361-1451) "Umdatul qoriy" (O'quvchining suyanchig'i), Ali Qorining (vaf. 1014/1605) "Mishkotul masobix" (Chirog'lar tokchasi)ga yozgan "Mirkotul mafotih" (Kalitlar narvoni) asarlari hisoblanadi.

Kalom sohasida esa ilk bor Abu Hanifaning o'zi qalam tebratgan, u zotning fiqhiy asarlari yo'q, balki barcha asarlari aqoid ilmiga tegishli. Ularning eng mashhuri "Al-Fiqh al-akbar" (Eng katta fiqh) deb ataladi. Abu Hanifa din asoslari bo'lmish e'tiqod ilmiga ng zarur fiqh deb qaragan. Binobarin, uning mazhabiga ergashganlarning qariyb barchasi aqida borasida uning yo'lini tutdilar. Ushbu yo'lni Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944) ilmiy ravishda o'rganib, tahlil qilib, rivojlantirdi va shu asosda o'zining moturidiya aqidaviy mazhabini yaratdi. Moturidiya aqidasi o'ld oid asarlarning hammasi bilvosita yoki bevosita hanafiy mazhabi qarashlarini ifoda etadi. Bu sohada Abul Muin Nasafiyning (vaf. 508/1114) "Bahrul kalom" (Kalom dengizi), "At-Tamhid li qavoidit tavhid" (Tavhid qoidalarini yengillatish), Abu Hafs Nasafiyning (1068-1142) "Al-Aqoid an-Nasafiyya" (Nasafiy aqidalari) kabi asarlari asrlar davomida asosiy manbalar bo'lib keldi.

XULOSA

Hanafiy fiqhida yangi sohalarining paydo bo‘lish zaruriyati jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. An’anaviy fiqhiy masalalar bilan bir qatorda zamonaviy hayotda paydo bo‘layotgan yangi muammolar — moliyaviy munosabatlar, texnologik taraqqiyot, tibbiyot, ekologiya va ijtimoiy institutlar bilan bog‘liq masalalar fiqhiy yondashuvni kengaytirishni taqozo etmoqda. Hanafiy mazhabining qiyos, istihson va urfga tayanadigan metodologiyasi bu jarayonda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Hanafiy fiqhida yangi sohalarining shakllanishi mazhabning asl manbalaridan chetga chiqmagan holda, zamon va makon talablari asosida shar’iy hukmlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu holat fiqhning hayotiyligini, moslashuvchanligini va jamiyat ehtiyojlariga javob bera olish salohiyatini namoyon etadi. Natijada, Hanafiy fiqhi nafaqat tarixiy meros sifatida, balki bugungi zamonaviy muammolarga yechim topa oladigan faol huquqiy tizim sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy. Abu Zayd Dabusiyy - ilm ul-xilof (qiyosiy huquqshunoslik) fanining asoschisi // Toshkent Islom universitetining ilmiy-tahliliy axboroti, 3/2003. – B. 9.
2. Abul Faraj Muhammad ibn Nadim. Kitobul fihrist lin Nadin / Tahqiq: Rizo Tajaddud. – Misr, 1971. – J. I. – B. 256.
3. Al-Mavsu’at al-fiqhiyya. Ishrof Iqola. – al-Kuvayt: “Vazoratul avqof vash shuunil islomiyya”, 1406/1986. – J. V. – B. 61.
4. Mustafo Ahmad Zarko. Al-Madخال al-fiqhiy al-omm. – Damashq: "Dorul qalam", 1998. – J. I. – B. 66-67.
5. Sa’diddin Taftazoniy. At-Talvih. Qozon, 1910. – B. 14-17.
6. Sayyid Sharif Jurjoniy. Kitobut ta’rifot. – Istanbul: “Husayniya”, 1300. – B. 18
7. Qarang: O‘zR FA SHI-1, № 9060. - V. 42
8. Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: “Sahifa”, 2024. – 400 b.